

TRANSPORT VOSITALARIDA EKSTREMISTIK MATERIALLARNI TARQATISHGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI MA’MURIY- OGOHLANTIRUV CHORALARI

Xomidov Tursinali Adxamovich

Toshkent davlat transport universiteti

mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22159438>

Annotatsiya. Maqolada transport vositalarida ekstremistik materiallarni tarqatishga qarshi kurashish sohasida qo'llaniladigan ma'muriy-ogohlantiruv choralarining huquqiy tabiati, tizimi va qo'llanilish muammolari tadqiq etilgan. Ma'muriy-ogohlantiruv choralarining majburlov unsuriga ega va majburlovsiz turlarga tabaqalanishi asoslanib, transport vositalarida ekstremizmga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy mexanizmi hamda transportdagi ekstremistik ta'sir obyekti tushunchalarining mualliflik ta'riflari taklif etilgan. Ko'rikdan o'tkazish, kirish va hududiy rejim, videokuzatuv va identifikatsiya, rasmiy ogohlantirish, profilaktik suhbat va profilaktik hisobga olish institutlarining normativ asoslari hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolari ochib berilgan. Xalqaro standartlar va xorijiy tadqiqotlar asosida milliy profilaktika modelini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy-ogohlantiruv choralari, ekstremistik material, ko'rikdan o'tkazish, videokuzatuv, rasmiy ogohlantirish, profilaktik suhbat, profilaktik hisobga olish, transport xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, profilaktika.

Transport vositasi va transport obyekti oson kirish mumkinligi, yo'lovchilar oqimining zichligi, yopiq makonda ko'p sonli odamning to'planishi hamda hujumdan keyin tarqalib ketishning qulayligi – bularning barchasi transportni ekstremistik ta'sir uchun jozibador muhitga aylantiradi. Mineta transport instituti tomonidan yuritilayotgan ma'lumotlar bazasida 1970-yildan buyon ommaviy yer usti transportiga – avtobus, poyezd, bekat va yo'lovchi paromlariga qaratilgan besh mingdan ortiq hujum qayd etilgan¹. B.M.Jenkins ushbu ma'lumotlar asosida shunday xulosaga keladi: aeroportlardagi kabi nazorat-o'tkazish punktlari mavjud bo'lmagan yer usti transportida yo'lovchilar bir-biriga notanish bo'ladi, bu esa hujumchiga noma'lumlik va oson chekinish imkonini beradi².

Bunday sharoitda huquqbuzarlik sodir etilganidan keyin ko'riladigan choralar ko'pincha kechikkan bo'ladi, shu bois transport muhitida ma'muriy-ogohlantiruv (profilaktik) choralar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi transport vositalarida ekstremistik materiallarni tarqatishga qarshi kurashish sohasidagi ma'muriy-ogohlantiruv choralarining huquqiy tabiatini aniqlash, ularning tizimini ochib berish hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ma'muriy-huquqiy choralarning huquqiy tabiatini aniqlash uchun ularning ma'muriy majburlov tizimidagi o'rnini belgilab olish zarur. Nazariyaga ko'ra davlat boshqaruvi ijro

¹ Jenkins B.M., Butterworth B.R., Shrum K. Terrorist Attacks on Public Bus Transportation: A Preliminary Empirical Analysis. — San José: Mineta Transportation Institute, 2010.

² Jenkins B.M. Protecting Public Surface Transportation Against Terrorism and Serious Crime: An Executive Overview. MTI Report 01-14. — San José: Mineta Transportation Institute, 2001.

etuvchi hokimiyat organlariga suddan tashqari tartibda majburlov choralari qo'llash vakolatini beradi, bu vakolat ma'muriy jazo, ma'muriy cheklov va ma'muriy ogohlantiruv choralari shaklida namoyon bo'ladi³. A.P.Korenevning fikricha, ma'muriy-ogohlantiruv choralari – huquqbuzarliklarning oldini olish va xavfsizlikka tahdid soluvchi vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan usul va vositalar majmuidir⁴, Yu.M.Kozlov esa choraning maqsadini ehtimoliy huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog'laydi⁵. Fikrimizcha, ikkala yondashuvda ham choraning huquqbuzarlik fakti bilan emas, uning ehtimoli bilan bog'liqligi markaziy belgi sifatida ajratiladi — bu transport sohasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tasniflash masalasida A.P.Korenev, Yu.M.Kozlov va L.L.Popov taklif etgan to'rt bo'g'inli tizim – ma'muriy javobgarlik, ma'muriy cheklov, ma'muriy-protsessual ta'minlash va ma'muriy-ogohlantiruv choralari – keng tarqalgan⁶. I.V.Maksimov esa tasnif mezonini sifatida choraning predmetga xos maqsadini ajratadi⁷. Ushbu tadqiqotda birinchi tasnif asos qilib olinadi, zero u transportda qo'llaniladigan choralarni javobgarlik choralaridan aniq ajratish imkonini beradi.

Choralarning majburiy xususiyatga ega yoki ega emasligi nazariyada uzoq munozaraga sabab bo'lgan. Ye.V.Shubina ma'muriy-huquqiy majburlovni davlat majburlovining alohida turi sifatida ta'riflaydi⁸. I.E.Bochkaryov ma'muriy-ogohlantiruv choralari deganda vakolatli shaxslarning qonunda belgilangan holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladigan va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan harakatlarini tushunadi⁹. S.N.Kojevnikov esa majburiylik va majburlovni farqlashning ikki mezonini – subyektning choraga munosabati va cheklovlarning xususiyatini ajratib ko'rsatadi¹⁰. Nazariyada choralarning barqaror belgilari ham ajratiladi: huquqbuzarlik fakti bilan bog'liq emasligi; xavf omillarini kamaytirishga yo'naltirilganligi; normativ hujjatlarda rasmiy mustahkamlanganligi; asosan suddan tashqari tartibda qo'llanilishi; chora qo'llanilayotgan subyekt bilan mansabdor shaxs o'rtasida xizmat bo'ysunuvi mavjud emasligi. D.N.Baxrax ushbu belgilarni ma'muriy javobgarlik qonunchiligining umumiy nazariyasi doirasida shakllantirgan¹¹. V.J.Xudoyberdieva va E.T.Xojiev esa ma'muriy huquqning tartibga solish uslubi hokimiyat-ko'rsatma xarakteriga ega ekanini ko'rsatib, majburlov choralarining bir tomonlama qo'llanilishini uning tabiiy oqibati deb baholaydi¹².

MDH tajribasida M.K.Shomaxov shahar ommaviy transportini terrorchilik tahdidlaridan himoya qilish masalalarini tahlil qilib, choralarning yo'lovchilar oqimiga salbiy ta'sir

³ Бахрах Д.Н. Административное право России: учебник. — М.: Эксмо.

⁴ Корнев А.П. Административное право России: учебник: в 3 ч. Ч. 1. — М., 1996.

⁵ Козлов Ю.М. Советское административное право: пособие для слушателей. — М., 1984.

⁶ Попов Л.Л., Мигачёв Ю.И., Тихомиров С.В. Административное право России: учебник. — М.: Проспект, 2016.

⁷ Максимов И.В. Административные наказания. — М.: Норма, 2009.

⁸ Шубина Е.В. Административно-предупредительные меры в системе административно-правового принуждения // Административное и муниципальное право. — 2014. — № 11. — С. 1160–1164.

⁹ Бочкарев И.Е. Административно-предупредительные меры, применяемые милицией: дис. ... канд. юрид. наук. — М., 2001.

¹⁰ Кожевников С.Н. Государственное принуждение: особенности и содержание // Советское государство и право. — 1978. — № 5. — С. 47–53.

¹¹ Бахрах Д.Н. Советское законодательство об административной ответственности: учебное пособие. — Пермь, 1969.

¹² Xudoyberdiyeva V.J., Xojiyev E.T. Ma'muriy huquq. — Toshkent, 2000.

ko'rsatmasligi zarurligini asoslaydi¹³. I.N.Arhipsev esa temir yo'l, havo va suv transportida jamoat tartibi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini ajratadi¹⁴. O'zbekiston olimlaridan P.K.Sharipov odamlar ommaviy to'planadigan joylarda jamoat xavfsizligi buzilishining oldini olishga qaratilgan ma'muriy choralarni tizimlashtirgan¹⁵.

Transport sohasida ushbu nazariy munozara amaliy yechimini topadi: ma'muriy-ogohlantiruv choralari ichki jihatdan tabaqalangan tizimni tashkil etadi, uning tarkibida ham majburlov unsuriga ega (shaxsni va bagajni ko'rikdan o'tkazish, transport vositasiga qo'yilmaslikka yoki undan tushirishga oid qaror, profilaktik hisobga olish), ham majburlovsiz (transportda profilaktika suhbat, yo'lovchilarni ogohlantiruvchi axborot ishlari) choralari mavjud. Bu pozitsiya transport uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega: ko'rikdan o'tkazish va shaxsni identifikatsiya qilish shaxsiy daxlsizlik hamda erkin harakatlanish huquqini cheklaydi, demak, ularga nisbatan mutanosiblik, qonun darajasida mustahkamlanganlik va sud nazorati talablari to'liq joriy etilishi shart; axborot-ogohlantiruv choralari esa bunday cheklovni keltirib chiqarmaydi.

Yuqoridagilar asosida quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi. **Transport vositalarida ekstremizmga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy mexanizmi** – transport obyekti yoki transport vositasida ekstremistik faoliyat belgilari aniqlanganda yoxud bunday faoliyat xavfi yuzaga kelganda, javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda ham, vakolatli davlat organlari va tashuvchilar tomonidan normativ hujjatlarda belgilangan tartibda qo'llaniladigan, transport obyektiga va vositasiga xavfli predmet hamda ekstremistik materialning kiritilishiga yo'l qo'yilmaslikka, potensial tarqatuvchining xulq-atvoriga profilaktik ta'sir ko'rsatishga va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan, mutanosiblik, vaqtinchalik, aniq hududiy chegaraga egalik hamda sud nazorati ostida bo'lish belgilari bilan tavsiflanadigan ma'muriy-ogohlantiruv choralari va tashkiliy vositalar tizimidir.

Mexanizmning ta'sir obyekti aniqlash uchun “ekstremistik material” tushunchasiga murojaat etish zarur. O'zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-489-son Qonunining 3-moddasida ekstremistik material — ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga oshkora da'vat qiladigan yoxud shunday faoliyatni amalga oshirish zarurligini asoslab beradigan yoki oshkora oqlaydigan, tarqatish uchun mo'ljallangan hujjat yoki har qanday vositadagi boshqa axborot sifatida ta'riflangan¹⁶. Ushbu ta'rif axborot tashuvchisining turiga bog'lanmagani bilan kuchli, biroq u transport kontekstiga moslashtirilmagan: unda materialning transport vositasida olib o'tilishi, transport obyektida namoyish etilishi va tranzit tarzda hududdan o'tkazilishi kabi holatlar farqlanmaydi, holbuki bu uchta holat mutlaqo turli huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi va turli choralarni talab qiladi.

Xorijiy tajribada J.M.Berger ekstremizmni “biz” guruhining farovonligi “ular” guruhiga qarshi harakat bilan uzviy bog'liq deb e'lon qilinadigan mafkuraviy konstruksiya sifatida

¹³ Шомахов М.К. К вопросу обеспечения безопасности городского общественного транспорта от террористических угроз. — 2014.

¹⁴ Архипцев И.Н. К вопросу об особенностях обеспечения общественного порядка и общественной безопасности на железнодорожном, воздушном и водном транспорте. — 2015.

¹⁵ Sharipov P.K. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi buzilishining oldini olishga qaratilgan ma'muriy choralari // Academic Research in Educational Sciences. — 2022. — Vol. 3. — No. 1. — B. 830–836.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O'RQ-489-son “Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/3841957>.

ta’riflaydi; bu yondashuv materialni baholashda mazmuniy mezon vazifasini bajaradi¹⁷. M.Konuey esa tadqiqotlarni bir mafkuraviy yo’nalish bilan cheklashni metodologik kamchilik deb ko’rsatadi¹⁸, bu xulosa transportdagi monitoringga ham tegishlidir.

Bayon etilganlar asosida ikkinchi mualliflik ta’rifi taklif etiladi. **Transportdagi ekstremistik ta’sir obyekti** – transport obyekti yoki transport vositasining makonida joylashtirilgan, olib o’tilayotgan yoxud namoyish etilayotgan, ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga da’vat qiladigan, uni asoslaydigan yoki oqlaydigan har qanday moddiy va nomoddiy shakldagi axborot obyekti bo’lib, u transport vositasidagi yo’lovchilar doirasining yopiqqligi va nomuayyanligi hisobiga ommaviy axborot vositasi funksiyasini bajaradi.

Normativ asoslarga kelsak, O’zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonunining 7-moddasida ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlar tizimi belgilangan: aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, rasmiy ogohlantirish chiqarish, yuridik shaxsga taqdimnoma kiritish, ekstremistik materiallarni olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etishni taqiqlash, ekstremizmni moliyalashtirishni taqiqlash, yuridik shaxs faoliyatini to’xtatib turish hamda tashkilotni ekstremistik deb topish. Qonunning 11-moddasida ekstremistik materiallarni hamda ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini tarqatish va namoyish etish taqiqlanishi ko’rsatilgan¹⁹. Ayni paytda, Qonun matnida “transport obyekti” va “transport vositasi” tushunchalari umuman uchramaydi – bu tizimdagi birinchi va eng sezilarli normativ bo’shliqdir.

Transport sohasidagi maxsus normativ tayanchni Prezidentning 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori tashkil etadi. Unga muvofiq yagona Transportda xavfsizlikni ta’minlash bosh boshqarmasi tashkil etildi hamda poyezdlarda bevosita jamoat tartibini ta’minlash va ma’muriy huquqbuzarliklarni ko’rib chiqish uchun kuzatuvchi profilaktika inspektorlari lavozimlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi²⁰. Ushbu Qaror ijrosi doirasida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-dekabrda 1010-sonli Qarori bilan Bosh boshqarma tuzilmasida Situatsion-tahliliy markaz tashkil etildi. Markaz faoliyatining asosiy yo’nalishlari etib transport obyektlari va ularga tutash hududlardagi vaziyatni monitoring qilish hamda prognozlash, xavf-xatarlar to’g’risidagi ma’lumotlarni yig’ish va tahlil qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan takliflar ishlab chiqish belgilangan²¹. Profilaktika choralarining umumiy tartibi O’zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi Qonuni bilan tartibga solingan bo’lib, 29-moddasida yakka tartibdagi profilaktika choralari belgilangan²². Ichki ishlar

¹⁷ Berger J.M. Extremism. — Cambridge, MA: The MIT Press, 2018.

¹⁸ Conway M. Determining the Role of the Internet in Violent Extremism and Terrorism: Six Suggestions for Progressing Research // Studies in Conflict & Terrorism. — 2017. — Vol. 40. — No. 1. — P. 77–98.

¹⁹ O’zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O’RQ-489-son “Ekstremizmga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/3841957>.

²⁰ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori.

²¹ O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-dekabrda 1010-son qarori (2022-yil 4-aprelda 153-son qaror tahririda). — URL: <https://lex.uz/docs/4651276>.

²² O’zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O’RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/2387357>.

organlarining vakolatlari “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonunida belgilangan²³.

Huquqni qo‘llash amaliyotida eng ko‘p cheklovchi va ayni paytda eng ko‘p qo‘llaniladigan choralardan biri transport obyekti va vositasini **ko‘rikdan o‘tkazish** hisoblanadi. Ko‘rikdan o‘tkazish deganda, transport obyektiga yoki vositasiga kirish chog‘ida yo‘lovchining o‘zini, uning qo‘l yuki va bagajini texnik vositalar yordamida yoxud bevosita ko‘zdan kechirish yo‘li bilan xavfli predmetlar va taqiqlangan materiallar mavjudligini aniqlashga qaratilgan harakatlar tushuniladi. Mazkur choraning ma‘muriy-ogohlantiruv tabiati shundaki, u huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga emas, barcha yo‘lovchilarga birdek qo‘llaniladi va xavfli obyektning transport makoniga kiritilishiga yo‘l qo‘ymaslikni maqsad qiladi. Havo transportida ko‘rikdan o‘tkazish instituti nisbatan batafsil tartibga solingan: idoraviy qoidalarga ko‘ra, qo‘l yuki va bagajni ko‘zdan kechirish hamda shaxsni tekshirib chiqish parvozlar xavfsizligini ta‘minlash va noqonuniy aralashuv hodisalarining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi²⁴. Yer usti transportida esa shunga o‘xshash, qonun darajasida mustahkamlangan tartib mavjud emas.

Tahlillar huquqni qo‘llash amaliyotida quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda: birinchidan, yer usti transportida ko‘rikdan o‘tkazishning huquqiy asosi qonun darajasida mustahkamlanmagan – metropoliten va vokzallarda amalda kirish nazorati joriy etilgan bo‘lsa-da, uning asoslari, hajmi, bosh tortishning oqibatlari va shikoyat qilish tartibi aniq belgilanmagan; shaxsiy daxlsizlik konstitutsiyaviy huquq bo‘lganidan, uni cheklovchi choraning qonun darajasida tartibga solinishi talab etiladi; ikkinchidan, ko‘rik standartlari transport turlari bo‘yicha keskin farq qiladi – aeroportda mukammal texnologik zanjir ishlaydi, vokzalda ko‘pincha metall detektor ramkasi bilan cheklaniladi, avtovokzallarda nazorat amalda mavjud emas, bu “eng zaif bo‘g‘in” muammosini keltirib chiqaradi; uchinchidan, ko‘rik yo‘lovchilar oqimi tezligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va amalda rasmiyatchilik darajasiga tushib qolish xavfi mavjud.

Yana bir chora – **transport obyektiga kirish va hududiy rejimni belgilash** hisoblanadi. Uning mazmuni obyekt hududini nazorat darajasi bo‘yicha sektorlarga ajratish, cheklangan kirish joylariga ruxsatnoma rejimini joriy etish va nazorat-o‘tkazish punktlarini tashkil etishdan iborat. Huquqni qo‘llash amaliyotidagi asosiy muammo – transport obyektlarining xavfsizlik darajasi bo‘yicha tasniflanmaganligidir. Xorijiy amaliyotda transport infratuzilmasi obyektlari va transport vositalari uchun xavfsizlik darajalari belgilanadi va tahdid darajasi oshganda maxsus rejim joriy etiladi; milliy qonunchilikda bunday bosqichli rejim tizimi mustahkamlanmagan, natijada tahdid kuchayganda qo‘shimcha choralar har safar alohida topshiriq asosida, yagona mezonlarsiz joriy etiladi.

Videokuzatuv va shaxsni identifikatsiya qilish borasida ham muammolar mavjud. Birinchidan, videokuzatuv va biometrik identifikatsiya shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish hisoblanadi, biroq transportda yig‘iladigan ma‘lumotlarning toifalari, saqlash muddatlari, foydalanish huquqiga ega shaxslar doirasi va murojaatlarni qayd etish tartibi idoraviy darajada ham yetarlicha aniq belgilanmagan. Bu esa “Shaxsga doir ma‘lumotlar

²³ O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-407-son “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/acts/3027843>.

²⁴ Fuqaro aviatsiyasida aviatsiya xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha idoraviy qoidalar; O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish aviatsiya qoidalari (O‘zR AQ-91).

to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonunida mustahkamlangan maqsadga muvofiqlik va minimallik prinsiplarini buzish xavfini tug'diradi²⁵. Ikkinchidan, Toshkent metropoliteni va yirik aeroportlar nisbatan yaxshi jihozlangan bo'lsa, hududiy temir yo'l bekatlari, avtovokzallar va shaharlararo avtobus yo'nalishlari kuzatuv doirasidan amalda chetda qolmoqda.

Rasmiy ogohlantirish O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasiga muvofiq, ekstremistik faoliyat belgilarini o'z ichiga olgan, tayyorlanayotgan g'ayriqonuniy harakatlar to'g'risida yetarlicha va avvaldan tasdiqlangan ma'lumotlar mavjud bo'lgan hamda javobgarlikka tortish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda yozma shaklda chiqariladi; ogohlantirilgan shaxs yuqori turuvchi mansabdor shaxsga yoki sudga shikoyat qilishga haqli²⁶. **Profilaktik suhbat va profilaktik hisobga olish** esa "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 29–38-moddalari asosida qo'llaniladi; ularning tabiati keskin farq qiladi — birinchisi majburlov unsuridan xoli, ikkinchisi shaxsning huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatadi²⁷.

Ekstremistik materiallarni transport vositalarida olib o'tish va tarqatishni taqiqlash hamda uni olib qo'yish bo'yicha ham quyidagi muammolarni uchratish mumkin: birinchidan, transportda aniqlangan materialning ekstremistik xususiyatini baholash uchun zarur ekspertiza ko'pincha oylar davom etadi, bu vaqt mobaynida yo'lovchi o'z yo'lini davom ettiradi va u bilan aloqa uziladi, tezkor baholashning soddalashtirilgan tartibi esa mavjud emas; ikkinchidan, elektron shakldagi materiallarga – yo'lovchining mobil qurilmasidagi fayl, kanal yoki hisob yozuviga nisbatan ko'rikdan o'tkazish chog'ida chora ko'rishning huquqiy asosi belgilanmagan; uchinchidan, transport xodimlarining – mashinist, konduktor, styuardessa, vokzal navbatchisining ekstremistik belgilarni aniqlash va xabar berish majburiyati hamda uning tartibi normativ jihatdan mustahkamlanmagan.

Milliy tajribani baholash uchun xalqaro standartlarga murojaat etish o'rinli. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining Chikago konvensiyasiga 17-ilovasi fuqaro aviatsiyasini noqonuniy aralashuv harakatlaridan himoya qilishning xalqaro standartlarini belgilaydi: har bir a'zo davlat milliy aviatsiya xavfsizligi dasturini qabul qilishi, xavfni doimiy baholab borishi va choralarni tahdid darajasiga mutanosib ravishda tabaqalashtirishi shart²⁸. Yer usti transportida esa yagona majburiy xalqaro standart mavjud emas – bu soha milliy tartibga solish va tavsiyaviy amaliyot darajasida qolmoqda, aynan shu sababli yer usti transporti himoyalanganlik darajasi bo'yicha havo transportidan jiddiy orqada qoladi.

A.Lukaytu-Sideris, B.Taylor va K.Fink to'rt shaharning temir yo'l transporti xavfsizligi amaliyotini qiyosiy o'rganib, samarali modelning uchta unsurini ajratadilar: xavfni muntazam va rasmiy baholash tizimi, obyekt va transport vositasini loyihalash bosqichidayoq xavfsizlik talablarini hisobga olish hamda yo'lovchilarni xavfsizlikni ta'minlashga jalb etish²⁹. B.M.Jenkins

²⁵ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/4396428>.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O'RQ-489-son "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/3841957>.

²⁷ O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/2387357>.

²⁸ ICAO. Annex 17 to the Convention on International Civil Aviation. Aviation Security: Safeguarding International Civil Aviation against Acts of Unlawful Interference. 12th ed. — Montreal: ICAO, 2022.

²⁹ Loukaitou-Sideris A., Taylor B.D., Fink C.N.Y. Rail Transit Security in an International Context: Lessons from Four Cities // Urban Affairs Review. — 2006. — Vol. 41. — No. 6. — P. 727–748.

va L.Gersten esa ko'p yillik tadqiqotlari asosida shunday xulosaga keladi: yer usti transportida aeroport rusumidagi total ko'rikdan o'tkazishni joriy etish iqtisodiy va tashkiliy jihatdan amalga oshmaydi, shu bois samaradorlik manbai texnik nazorat emas, balki xavfsizlik rejasi, xodimlarning tayyorgarligi, obyekt dizayni va inqirozga javob berishning tezligi hisoblanadi³⁰. Ushbu xulosa O'zbekiston uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega: milliy model total ko'rikdan o'tkazishga emas, xavfni tabaqalashtirishga va xodimlar salohiyatiga tayangan holda qurilishi maqsadga muvofiq.

Choralarning samaradorligi ulardan tashqaridagi, yordamchi-tashkiliy omillarga ham bog'liq. V.V.Baranov axborot-tahliliy ta'minot va kadrlar salohiyatini ekstremizmga qarshi kurashish tizimidagi "ta'minlovchi blok"ning markaziy unsuri deb baholaydi va davlat byudjetining cheklangan imkoniyatlari huquqni muhofaza qilish va tijorat sektorining hamkorligi hisobiga to'ldirilishi mumkinligini ta'kidlaydi³¹. Transport sohasida bu xulosa ayniqsa o'rinli, zero tashuvchilarning o'z xavfsizlik xizmatlari sezilarli resursga ega. Mineta instituti ma'lumotlar bazasi tahlili hujumlarning ustuvor qismi poyezd va avtobus salonida hamda bekat va vokzal makonida sodir etilganini ko'rsatadi, portlovchi va yondiruvchi vositalardan foydalanish esa hujum usullari orasida yetakchi o'rinni egallaydi³². Ushbu ma'lumotlar choralar ustuvorligini belgilashda foydali bo'lib, himoya resursining asosiy qismi aynan transport vositasining saloni va bekat makoniga yo'naltirilishi lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, transport vositalarida qo'llaniladigan ma'muriy-ogohlantiruv choralari ichki jihatdan tabaqalangan tizimni tashkil etadi: majburlov unsuriga ega choralar (ko'rikdan o'tkazish, profilaktik hisobga olish) mutanosiblik, qonun darajasida mustahkamlanganlik va sud nazorati talablariga to'liq bo'ysundirilishi shart; majburlovsiz axborot-ogohlantiruv choralari esa bunday talablarni keltirib chiqarmaydi.

Ikkinchidan, transport vositalarida ekstremizmga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy mexanizmi va transportdagi ekstremistik ta'sir obyekti tushunchalarining mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi. Mazkur ta'riflar profilaktik choralarning qo'llanilish chegaralarini aniq belgilash imkonini beradi.

Uchinchidan, yer usti transportida ko'rikdan o'tkazishning asoslari, hajmi, ko'rikdan bosh tortishning oqibatlari (obyektga kiritmaslik) va shikoyat qilish tartibi qonun darajasida aniq belgilanishi lozim. Bunda ko'rik ma'muriy oldini olish chorasi sifatida, ko'rik natijasida taqiqlangan material aniqlanganda qo'llaniladigan olib qo'yish esa cheklash chorasi sifatida farqlanishi zarur.

To'rtinchidan, transport obyektlarini himoyalanganlik darajasiga ko'ra toifalarga ajratish va har bir toifa uchun majburiy ma'muriy-huquqiy xavfsizlik rejimini belgilash tartibini joriy etish, transportda yig'iladigan shaxsga doir ma'lumotlarning toifalari, saqlash muddatlari va foydalanish tartibini normativ darajada aniqlashtirish talab etiladi.

³⁰ Jenkins B.M., Gersten L.N. Protecting Public Surface Transportation Against Terrorism and Serious Crime: Continuing Research on Best Security Practices. — San José: Mineta Transportation Institute, 2001.

³¹ Баранов В.В. Правовые и организационные основы деятельности органов внутренних дел по противодействию проявлениям экстремизма в глобальной компьютерной сети: дис. ... канд. юрид. наук. — М.: Академия управления МВД России, 2021.

³² Jenkins B.M., Butterworth B.R. Explosives and Incendiaries Used in Terrorist Attacks on Public Surface Transportation: A Preliminary Empirical Examination. — San José: Mineta Transportation Institute, 2010.

Beshinchidan, milliy profilaktika modeli total ko‘rikdan o‘tkazishga emas, balki xavfni tabaqalashtirishga, xodimlar salohiyatiga va yo‘lovchilarni xavfsizlikni ta‘minlashga jalb etishga tayangan holda qurilishi, himoya resursining asosiy qismi esa transport vositasining saloni va bekat makoniga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.